

ANDIJON VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-iyun*



ANDIJON VILOYATINING DOIMIY AHOLISI*2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024- yil 1- iyul holatiga doimiy aholi soni **3 424,4** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **30,1** ming kishiga yoki **100,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 788,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **52,2 %**), qishloq aholisi soni **1 635,5** ming kishi (**47,8 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni**3 424,4** ^{ming}
kishi**Tabiiy o'sish****+30,1** ^{ming}
kishi**Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****52,2%****Qishloq****47,8%****Aholining tabiiy harakati, kishi**

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	39 306	38 482	-824	23,7	22,7
O'lganlar	7 079	7 559	480	4,3	4,5
Ko'chib kelganlar	3 127	3 589	462	1,9	2,1
Ko'chib ketganlar	4 060	4 451	391	2,5	2,6


Andijon viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1-iyul holatiga (%)da



2024- yil 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining 32,8 % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 55,6 % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 11,6 % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aholining yosh guruhlari va jinsi bo'yicha taqsimlanishi


2024- yil 1- yanvar holatiga



2024- yil 1- yanvar holatiga Andijon viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo'yicha (65 yoshgacha bo'lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo'lgan bolalar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **211,7 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelib **62,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo'lgan qizlar eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni **199,6 ming kishini** tashkil etgan bo'lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni **68,3 ming kishini** tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- iyul holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1-iyul holatiga daslabki, kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha:	3 354 016	3 424 440	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	473 849	486 765	102,7
Xonobod	45 446	46 161	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	190 677	192 980	101,2
Andijon	282 586	289 186	102,3
Baliqchi	213 157	217 629	102,1
Bo'ston	76 841	78 606	102,3
Buloqbo'shi	151 099	154 227	102,1
Jalaquduq	196 803	200 369	101,8
Izboskan	252 343	257 367	102,0
Ulug'nor	63 488	64 052	100,9
Qo'rg'ontepa	227 852	232 158	101,9
Asaka	350 637	358 020	102,1
Marhamat	184 093	187 898	102,1
Shahrixon	320 305	327 404	102,2
Paxtaobod	206 229	210 454	102,0
Xo'jaobod	118 611	121 164	102,2

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Andijon viloyatida 2024- yil 1- iyul holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **796** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **16** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **780** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Andijon shahrida **7 437** kishi, Xonobod shahrida **1 989 kishi** kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Ulug'nor tumanida **231** kishi, Bo'ston tumanida **232** kishini tashkil etgan.

Andijon viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Tug'ilganlarning taqsimlanishi



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (‰)

2024- yil yanvar-iyun, kishi



Yanvar -Mart



Yanvar -Iyun




2024-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **38 482** kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (**39 306** kishi) nisbatan - 824 taga kamaygan, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti **22,7** promilleni tashkil qildi va avvalgi yilga nisbatan - **1,0** promilleda pasaygan.




Vafot etganlarning asosiy o'lim sabablar

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,4 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,8 % o'simtalardan, 3,7 % baxtsizhodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 3,9 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,8 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,7 % yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 13,7 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

VAFOT ETGANLAR



Vafot etganlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart

Erkaklar

2 080

Ayollar

1 784



Yanvar-Mart

Shahar joylarda

2 197


Qishloq joylarda

1 667



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024-yil yanvar-iyun oylarida 7 559 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi.

Yanvar -Iyun

Erkaklar

4 074

Ayollar

3 485



Yanvar -Iyun

Shahar joylarda


4 271

Qishloq joylarda

3 288



QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Nikohlarning taqsimlanishi


Yanvar-Mart

Shahar
1 727

Qishloq
1 890


Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik



Apriel-Iyun

Shahar
4 146

Qishloq
3 758



Nikoh koeffitsiyentining eng ko'p pasayishi Buloqboshi tumanida (0,6 promillega), Qo'rg'ontepa tumanlari (0,3 promillega) va Marhamat tumanda (0,4 promillega) kuzatildi

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik



■ Ajrim, birlik ■ Ajrim koeffitsiyenti, promille

2024- yil yanvar-iyun oylarida 2 390 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,3 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-iyun oylarida 1,7 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

Yanvar-Mart

Shahar
632

Qishloq
546



Aprel-Iyun

Shahar
1 324


Qishloq
1 066



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun

**farzandsiz
ajrashgan**



2024- yil yanvar-iyun oylarida Andijon viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **51,6 %** i farzandsiz, **28,2 %** i bitta farzand bilan va **20,2 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari

2024- yil yanvar-iyun (kishi)

—	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Viloyat bo'yicha	3 127	3 589	4 060	4 451	-933	-862
<i>shaharlar:</i>						
Andijon	845	770	976	1 184	-131	-414
Xonobod	124	152	87	112	37	40
<i>tumanlar:</i>						
Oltinko'l	234	253	189	235	45	18
Andijon	468	656	421	437	47	219
Baliqchi	104	123	229	204	-125	-81
Bo'ston	70	74	93	82	-23	-8
Buloqboshi	74	91	165	163	-91	-72
Jalaquduq	126	170	289	289	-163	-119
Izboskan	28	123	270	297	-242	-174
Ulug'nor	29	14	68	96	-39	-82
Qo'rg'ontepa	257	233	281	356	-24	-123
Asaka	174	193	255	251	-81	-58
Marhamat	80	110	174	171	-94	-61
Shahrixon	107	160	247	229	-140	-69
Paxtaobod	81	131	177	172	-96	-41
Xo'jaobod	326	336	139	173	187	163

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 74 228-30-54